

PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA METODIK YONDASHUVLAR

Andijon viloyati Asaka tumani

Karimova Feruza Dilshotbekovna

55- Umumiy o`rta ta`lim maktabi

O`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o`qituvchilarning kasbiy-pedagogik mahoratini va uning bir tarmog` sanaladigan kasbiy kompetensiyasini oshirish ahamiyati haqida so`z boradi. Bugungi kun o`qituvchilar faoliyati samaradorligini, pedagogik faoliyatini yo`lga qo'yishda avvalo, unda pedagogik mahorat, har bir pedagogik jarayonda zarur bo`lgan kompetensiya turlariga egalik faoliyatdagi ahamiyati yoritib o`tilgan. Bolaning psixologik jihatlari keng yoritilgan.

**Kalit so`zlari:** psixologik, ta`lim va tarbiya, Bixevioristik, temperamenti, harakteri, qiziqishlari, ijtimoiy, nevrotik, . Emotsional .

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация: В этой статье рассматривается важность повышения профессиональных и педагогических навыков учителей и их профессиональной компетентности как отрасли. Сегодня эффективность деятельности учителей, прежде всего, подчёркивает педагогические навыки, важность обладания необходимыми компетенциями в каждом педагогическом процессе. Психологические аспекты ребёнка широко освещены.

Ключевые слова: психологический, образовательный и воспитание, поведенческий, темпераментный, характерный, интересный, социальный, невротический, . Эмоциональный.

PEDAGOGICAL, PSYCHOLOGICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES

Annotation: This article deals with the importance of improving the professional and pedagogical skills of teachers and its professional competence as a branch. Today, the effectiveness of teachers' activities, first of all, it highlights the pedagogical skills, the importance of having the types of competence required in each pedagogical process. The psychological aspects of the child are widely covered.

Keywords: psychological, educational and upbringing, Behavioral, temperamental, characteristic, interests, social, neurotic, . Emotional .

Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi — shartsharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirishdir. Pedagogik psixologiya XIX-asrning 2-yarmida vujudga kelgan. Ekspremental psixologiya tadqiqotchilari Pedagogik psixologiya rivojiga katta hissa qo'shganlar. Pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o'sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo'nalishlar ham turtki berdi. Bixevioristik (qarang Bixeviorizm) psixologiya yo'nalishi tarbiyachi va o'quvchiga tashqi muhitning ta'sirini Pedagogik psixologiya uchun asos qilib oladi. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uz-viy bog'liq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta'lim psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo'linadi. Ta'lim psixologiyasi da o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakte-ri, qiziqishlari), o'quv predmetlarining o'ziga xos'tomonlari, ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o'rganiladi.

Hozirgi zamon ta'lim psixologiyasida o'quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imko-niyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta'minlaydigan tafakkur sifatlarini o'rganish muhim masaladir.

Tarbiya psixol o'g'iyasining asosiy vazifasi — maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o'quv materialini mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi davrda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorifi tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'qituvchilar, barcha pedagoglar oldiga o'quvchining bilimlarni yuksak darajada o'zlashtirishi; o'quvchilar mustaqil tafakkurini, ular aktivligini rivojlantirish; ularda yuksak axloqiy sifatlarini tarbiyalash; ularning tafakkur, muloqot, o'qish, mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun faqat pedagogika fanining nazariy asoslarini, har bir o'qituvchi predmetni o'qitish metodikasini, maktab o'quvchilarining fiziologiyasi asoslari, maktab o'quvchilari gigiyenasi asoslarinigina bilish emas, balki ma'lum darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lish lozim. 4 Har bir pedagog ma'lum darajada psixolog ham bo'lishi talab etiladi, chunki ular har biri faqat o'ziga xos bo'lgan, turli yoshdagi, turli individual xususiyatlarga ega bolgan o'quvchilar bilan ish olib boradi. Har bir bola faqat o'ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagi ta'lim-tarbiya berish jarayonida m am shu xususiyatlarni bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabatda bo'lish lozim. Mana shularni hisobga olgandagina, har bir pedagog o'zining asosiy vazifasi, ya'ni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Shuning uchun ham psixologiya fanining alohida sohalari bo'lmish yosh va pedagogik psixologiya asoslarini chuqur bilish har bir pedagog uchun muhim hisoblanadi. Psixologiya fanining bir qator tarmoqlari, sohalari mavjud. Ular orasida yosh psixologiyasi alohida ahamiyatga ega. Yosh psixologiyasi psixik rivojlanish, shuningdek, bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, yetuklik va qarilik davrida shaxs taraqqiyotining xususiyatlarini o'rganadi. Juda ko'p fundamental tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramay, bugungi kunda inson psixikasini uning butun hayotiy yo'li bosqichlarida rivojlanish xususiyatlarini yaxlit holda tavsiflashga erishilmagan.

Yosh psixologiyasi har bir yosh davrining qaytarilmas xususiyatlarini, yillar o'tgan sari, asta-sekinlik bilan bola qanday qilib inson bo'lib shakllanishi, shaxs sifatida o'zini ijtimoiy munosabatlarda namoyon qilishi, kasb tanlashi, muloqot jarayonida o'zining erk, huquq va majburiyatlariga intilishi, qanday qilib sevishi, ishonchli do'st bo'lib tarkib topishi, o'zi va boshqalar uchun mas'uliyatni his qilishi kabi jihatlarni tadqiq etadi. Bilimlarning har bir sohasi o'ziga xos nomlanishga ega. Lekin ba'zi bir bilimlar sohasi bir necha nom bilan ham atalishi mumkin. Masalan, yosh psixologiyasini boshqacha qilib, rivojlanish psixologiyasi deb nomlash mumkin. Ammo bu yerda aynan bitta yoki bir-biriga mazmun jihatdan juda yaqin bo'lgan 5 bilimlar sohasi ko'zda tutiladi va inson xulq-atvori, psixik rivojlanishning yosh xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilmoqda. Rus psixologi R.S.Nemov asarlarida ular sinonim sifatida qo'llaniladi. Bolalar psixikasini psixoanaliz va o'yin texnikasi yordamida o'rganish ularning emotsional sohasi haqidagi tasavurlarni kengaytirdi. Bolalar psixoanalitiki Dj.Boulbi bolalarning emotsional rivojlanishiga e'tibor qaratdi². Uning boglanib qolish nazariyasi zamonaviy biologik va psixologik ma'lumotlar hamda rivojlanishning an'anaviy psixoanalitik tasavurlarini birlashtirishga asoslangan. Boulbining asosiy g'oyasi shundan iboratki, ona bolaga nafaqat dastlabki organik ehtiyojlarini qondirish uchun emas, muhimi ona bolaga boglanib qolish hissini yaratadi. Dastlabki oylarda bolaning yiglashi, kulishlari onaning g'amxo'rligi, tashqi xavfsizligi, himoyalanganligidan darak beradi. Emotsional himoyalangan bolaning soglom psixik tarqqiyot yo'llari ochiq boladi. Ona bilan bola orasidagi dastlabki emotsional «boglanishning kasalliklar va shaxsiy muammolarning vujudga kelish xavfini oshiradi (masalan, depressiv holatlar). Boulbining g'oyalari hayotga tatbiq etilib, 1950-yillardan kichik bolalarni kasalxonalarda onasidan ajratmaslik haqida qaror qabul qilinib, amalda joriy etildi. E.Fromning bola tarbiyasida ota va onaning roli haqidagi fikrlari ham e'tiborga loyiq. Onaning bolaga muhabbati shartsiz zarur: bola borligi uchun yaxshi ko'riladi. Ona hayotga ishonishi va ortiqcha xavotirlanmasligi zarur, shundagina u bolaga xavfsizlik hissini uzatishi mumkin. Otaning muhabbati — shartli muhabbatdir, uni majburiyatlarni bajarib, tartibga rioya qilib, kutilmalarga mos harakat qilib qozonish mumkin. Bolalar psixoanalizi ta'lim va ijtimoiy sohalarda ishni tashkil etishda, ota-onalar bilan ishlashda katta ta'sir ko'rsatadi. Uning asosida «xatar guruhi» bolalari uchun turli xil «ota-ona —

bola» munosabatlarini tuzatish bo'yicha dasturlar tuzildi. Zamonaviy psixoterapiyaning maqsadlari juda keng sohalarda qollanilmoqda: nevrotik belgilarni yo'qotishdan, xavotirlanishni kamaytirish, aqliy faoliyatni tashkil etish o'zgarishlarigacha xulq-atvorni yaxshilashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. Развитие в психоанализе / М.Кляйн, С.Айзеке, Дж.Райвери, П.Хайманн. — М.: 2001.**
- 2. Боулби Дж. Детям — любовь и заботу //**
- 3. Психология развития: Хрестоматия.СПб., 2001. С. 127—140 100 shi» psixik**